

NOANIQLIK IFODALARINING LINGVISTIK TAHLILI VA SUN'IY INTELLEKT TARJIMASIDAGI MUAMMOLAR (YAPON TILI MISOLIDA)

Qo'ziboyeva Komilaxon Shuxratjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: komilaxonqoziboyeva3@icloud.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot yapon tilidagi noaniqlik ifodalarning strukturaviy xususiyatlarini, ularning madaniy asoslarini hamda zamonavir mashinaviy tarjima tizimlaridagi muammolarni tahlil qilishga qaratilgan. Ishda yuqori kontekstli madaniyat prinsipi asosida shakllangan til fenomenlari va sun'iy intellekt tizimlarining pragmatik cheklovlari o'rtasidagi ziddiyat ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: noaniq ifodalar, pragmatika, AI tarjima, pragmatika, kontekst, sun'iy intellekt muammolari, madaniy lingvistika.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НЕОДНОЗНАЧНЫХ ВЫРАЖЕНИЙ И ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА (НА ОСНОВЕ ЯПОНСКОГО ЯЗЫКА)

АННОТАЦИЯ

Данное исследование направлено на анализ структурных особенностей выражений неоднозначности в японском языке, их культурных оснований, а также проблем, возникающих в современных системах машинного перевода. В работе рассматривается противоречие между языковыми феноменами, сформированными на основе принципов высококонтекстной культуры, и прагматическими ограничениями систем искусственного интеллекта.

Ключевые слова: неоднозначные выражения, перевод с использованием искусственного интеллекта, прагматика, контекст, проблемы искусственного интеллекта, культурная лингвистика.

LINGUISTIC ANALYSIS OF AMBIGUOUS EXPRESSIONS AND PROBLEMS IN ARTIFICIAL INTELLIGENCE TRANSLATION (BASED ON THE JAPANESE LANGUAGE)

ABSTRACT

This study aims to analyze the structural characteristics of ambiguous expressions in the Japanese language, their cultural foundations, and the challenges

they pose for contemporary machine translation systems. The research examines the conflict between linguistic phenomena shaped by the principles of a high-context culture and the pragmatic limitations of artificial intelligence systems.

Key words: *ambiguous expressions, AI translation, pragmatics, context, artificial intelligence challenges, cultural linguistics.*

KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishida tillararo tarjima tizimi ham muhim o‘rin egallaydi. Grammatik strukturalarni qayta ishlashda erishilgan yutuqlarga qaramay, madaniyatga xos lingvistik hodisalar hamon sun‘iy intellekt uchun murakkab masala bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa yapon tili o‘zining kontekstiga yuqori darajada bog‘liqligi va noaniqlik ifodalar tizimining rivojlanganligi bilan alohida ajralib turadi.

Amerikalik madaniyatshunos, madaniy antropologiya va madaniyatlar aro kommunikatsiya sohasining asoschilaridan biri Edward Hallning fikrlariga ko‘ra: yapon madaniyati yuqori kontekstli madaniyatlar (Hight-context culture) qatoriga kiradi, bunda ma‘lumotlarning asosiy qismi kontekst orqali uzatiladi va og‘zaki ifodalar minimal aniqlikka ega bo‘ladi (Edward Hall, 1976). Bu xususiyat tilning barcha qatlamlarida, jumladan noaniqlik ifodalarida o‘z aksini topgan. Bu borada yapon tilshunosi Makino Seiichi tildagi bu hodisani “gapiruvchining muayyan fikrni aniq ifodalashdan qochib, ataylab ko‘p ma‘noli tuzilmalardan foydalanishi” sifatida belgilaydi (Makino & Tsutsui, 1995).

Tadqiqot dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, neyron tarmoqlariga asoslangan zamonaviy tarjima tizimlari (Google translate, AI) pragmatik ma‘nolarni va madaniy kontekstni to‘liq anglay olmaydi. Ikkinchidan, afsuski hozirgi davrda ham xalqaro muloqotda yapon tilidagi noaniq ifodalarni noto‘g‘ri sharhlash jiddiy tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi xavfi yuqori. Qolaversa bu mavzu tilshunoslikning pragmatika sohasi uchun nazariy ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi noaniqlik ifodalarning lingvistik tuzilishini tavsiflab berish, madaniy negizlarini ochib ko‘rsatish, sun‘iy intellekt tarjima muammolarini tahlil qilish va yechim yo‘nalishlarini o‘rganishdan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Noaniqlik ifodalarining til tuzilishida ko‘rinishi.

Yapon tilidagi noaniqlik ifodalari tilning turli darajalarida namoyon bo‘lib, biri-biri bilan bog‘liq murakkab tizimni tashkil etadi. Grammatik tomondan bu noaniqlik

ko‘pincha modal shakllar, tushirib qoldirilgan gap bo‘laklari (ellipsis) hamda maxsus leksik birliklar orqali ifodalanadi. Modal tizimi yapon tilining eng boy qismlaridan hisoblanadi. So‘zlovchining munosabatini bildiruvchi modallar shubha va ehtimollik semantikasini yetkazadi. かもしれない (kamoshirenai) “ehtimol”, だろう (darou) “shekilli”, らしい (rashii) “ko‘rinishidan” kabi ifodalar turli darajadagi ishonchsizlik, noaniqlik aks ettiradi. Bular gapga taxminiylilik va ehtiyotkorlik ma’nosini qo‘shadi.

Subyekt va obyektning tushirib qoldirilishi - tilning asosiy xususiyati hisoblanadi. Yapon tilshunosi Shibatani Masayoshining ta’kidlashicha, yapon tilidagi gaplarning taxminan 50–70 foizida subyekt ochiq holda aytilmaydi, ya’ni gaplar subyektsiz shaklda ishlatiladi (Shibatani, 1990). Misol uchun 行きます (ikimasu) fe’li kontekstga qarab “boraman”, “boradi” yoki “boramiz” kabi turli shaxs ma’nolarini anglatishi mumkin. Bunday tuzilmalar referentsiyani aniqlash uchun keng kontekstni talab etadi va AI tarjima uchun katta muammo yaratadi.

Bilvosita so‘rov va rad etish shakllari ham muhim ahamiyatga ega.

んじゃないですか (n ja nai desu ka) tuzilmasi fikr yoki taxminni yumshoq va muloyim tarzda ifodalash uchun ishlatiladi. ちょっと難しいです (chotto muzukashii desu) iborasi so‘zma-so‘z “biroz qiyin” degan ma’noni anglatadi, ammo amalda u muloyim rad etish vazifasini bajaradi. Bunday pragmatik funksiyalar chet tilini o‘rganuvchilar va mashinaviy tarjima tizimlari uchun eng katta qiyinchiliklardan biri hisoblanadi.

Leksik vositalar ham noaniqlikni ta’minlashda faol ishtirok etadi. ぐらい (gurai) “taxminan”, など (nado) “va boshqalar”, とか (toka) “va shunga o‘xshash” kabilar aniq chegaralarni yo‘qotadi va umumiylik ma’nosini yaratadi. Bu til birliklarining sistematik qo‘llanilishi yapon tiliga xos xususiyat bo‘lib, kategorik xulosalardan qochishni ta’minlaydi.

Madaniy konsepsiyalar va til strukturasi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Noaniqlik ifodalar tasodifiy til hodisasi emas, balki chuqur madaniy qatlamlar bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Bu mexanizmni tushunish uchun bir nechta asosiy madaniy konsepsiyalarni ko‘rib chiqish zarur.

Wa (和) prinsipi yapon jamiyatining markaziy tamoyili sifatida ijtimoiy uyg‘unlikni saqlashga qaratilgan. Antropolog, madaniyatshunos Takie Sugiyama Lebra tahlillariga binoan, yapon madaniyati to‘qnashuvlarni oldini olishni talab etadi va bu bevosita muloqot uslubiga ta’sir ko‘rsatadi (Lebra, 1976). Qat’iy fikr bildirish ziddiyat keltirib chiqarishi mumkinligi sababli, noaniqlik muvozanatni saqlash vositasiga aylanadi. Gapiruvchi o‘z nuqtai nazarini kategorik shaklda berish o‘rniga, turli ehtimoliy variantlarni taklif etadi.

Sasshi (察し) tushunchasi “his qilish” ma’nosini anglatadi va muloqotning muhim jihati hisoblanadi. Yapon tilshunosi Ishii Shouzou ta’rifiga ko’ra, sasshi “so’zlangan gapdan emas, balki kontekst va vaziyatdan asl ma’noni xulosa qilib chiqarish qobiliyati”dir (Ishii, 1984).

Uchi-soto (内-外) konsepsiyasi ichki va tashqi guruh tushunchasini bildiradi. Yaponiyalik antropolog va sotsiolog Chie Nakane tahlillariga muvofiq, yapon jamiyatida shaxs o’zini doimo ma’lum guruxning a’zosi sifatida identifikatsiya qiladi (Nakane, 1970). Tashqi kishilarga nisbatan yuqori darajadagi ehtiyotkorlik va noaniqlik majburiy hisoblanadi. Bu nafaqat til balki madaniyatning ham ta’siridir.

Honne-tatema (本音-建前) dualizmi yapon psixologiyasining muhim elementi hisoblanadi. Honne ichki haqiqiy fikrni, tatema esa ijtimoiy jihatdan maqbul rasmiy pozitsiyani bildiradi. Ikki qatlam o’rtasidagi farq tilning ko’p ma’noli va noaniq bo’lishini taqozo etadi. So’zlovchi o’z fikrini ochiq bildirmasligi, balki vaziyatga mos tarzda ifodalashi zarur.

Keigo (敬語) tizimi - xurmat shakllarining murakkab sistemasi - noaniqlik bilan uzviy bog’langan. Yuqori mavqega ega yoki katta yoshli shaxsga murojaat qilinganda, yanada noaniq va ehtiyotkorlik bilan munosabat qilgan ma’qul. Masalan, これは違います (kore wa chigaimasu) “bu noto’g’ri” bevosita va qo’pol hisoblansa, これはちょっと違うんじゃないかと思います (kore wa chotto chigau n ja nai ka to omoimasu) “bu biroz noto’g’ri bo’lishi mumkin deb o’ylayman” to’g’ri va xurmat to’la saqlangan variant hisoblanadi.

Sun’iy intellekt tarjimasidagi asosiy muammolar.

Neyron tarmoqlarga asoslangan zamonaviy mashinaviy tarjima tizimlari sezilarli darajada rivojlangan bo’lsa-da, yapon tilidagi noaniqlik ifodalari ular uchun hanuz jiddiy muammo bo’lib qolmoqda. Asosiy qiyinchilik pragmatik ma’noni tushunish va madaniy kontekstni hisobga olish bilan bog’liq.

Eng muhim muammo - kontekstni anglashdir. Yapon tilida subyekt ko’pincha ochiq aytilmaydi, bu esa sun’iy intellekt uchun referentni aniqlashni qiyinlashtiradi. Masalan, 食べた (tabeta) fe’li kontekstga qarab “men ovqatlandim”, “u ovqatlandi” yoki “ular ovqatlandilar” ma’nolarini bildirishi mumkin. Yapon tilshunosi Hiroshi Yamashita va kompyuter lingvisti Kevin Knight tadqiqotlariga ko’ra, yapon tilidagi subyekt ellipsisi mashinaviy tarjima tizimlari uchun jiddiy to’siq hisoblanadi (Yamashita & Knight, 2001).

Yana bir muhim muammo - modallar tarjimasidir. Masalan, かもしれない (kamoshirenai) grammatik jihatdan ingliz tiliga “maybe” deb tarjima qilinishi mumkin. Biroq amalda bu birlik shubha, ehtiyotkorlik, xurmat yoki bilvosita rad etish

kabi turli pragmatik vazifalarni bajaradi. Afsuski sun'iy intellekt tizimlari bu nozik farqlarni hali yaxshi ajrata olmaydi.

Amaliy misollar bu cheklovni yaqqol ko'rsatadi. *そうですね...ちょっと難しいかもしれませんね* iborasi literal tarjimada "Xo'sh, bu biroz qiyin bo'lishi mumkin" deb beriladi. Ammo real muloqotda bu ifoda ko'pincha muloyim rad etish, ya'ni "yo'q" ma'nosini bildiradi. Google Translate kabi tizimlar bu funktsional ma'noni aniqlay olmasligi tabiiy.

Mumkin bo'lgan yechimlar va rivojlanish yo'nalishlari.

Muammoni hal qilish uchun bir nechta muhim yo'nalishlar mavjud. Eng avvalo, pragmatik yondashuvni qo'llash zarur. Ya'ni tarjima faqat so'zma-so'z emas, balki gapning kommunikativ vazifasi asosida amalga oshirilishi kerak.

Shuningdek, kontekst modellarni ishlab chiqish muhimdir. Alohida gaplar emas, balki butun dialogni tahlil qiladigan tizimlar referentni aniqlash va pragmatik ma'noni tushunishda samaraliroq bo'ladi.

Bundan tashqari, multimodal yondashuv (intonatsiya, pauza, jest va mimikani hisobga olish) noaniqlik ifodalarini aniqroq tushunishga yordam beradi.

Yapon tilini o'rganuvchilar uchun esa grammatikani bilish yetarli emas. Wa, sasshi, uchi-soto, honne-tatema kabi madaniy tushunchalarni o'rganish real muloqotni tushunishda muhim deb o'ylayman. Albatta gapning nafaqat semantik, balki pragmatik funktsiyasiga ham e'tibor qaratish zarur.

XULOSA

Yapon xalqi muloqot davomida o'zini ta'kidlamaslik, suhbatdoshini ranjitib qo'ymaslik va ziddiyatga bormaslikka jiddiy qaraydi va aynan shu sabab High-context til hisoblanadi. Buni madaniyat belgisi deyish ham mumkin. Shunga ko'ra yapon tilidagi noaniqlik ifodalar chuqur madaniy ildizlarga ega murakkab lingvistik hodisadir. Bu til hodisasi yapon madaniyatining asosiy qiymatlari - ijtimoiy garmoniya, ehtiyotkorlik, ierarxiya va his qilish madaniyati - bilan chambarchas bog'langan. Grammatik va leksik darajada institutlashgan noaniqlik tizimi yapon tilini tipologik jihatdan noyob qiladi.

Zamonaviy sun'iy intellekt va mashinaviy tarjima tizimlari grammatik qayta ishlashda yuqori natijalarga erishgan bo'lsa-da, pragmatik semantika va madaniy kontekstni anglashda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu muammo nafaqat texnologik, balki fundamental xarakterga ega: tilni tushunish madaniyat, ijtimoiy munosabatlar va antropologik bilimni ham talab etadi.

Kelajakda muammoni hal qilish uchun interdistsiplinar yondashuv zarur. Lingvistika, sun'iy intellekt, madaniy antropologiya va ijtimoiy fanlarning integratsiyasi yapon noaniqlik ifodalarini chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi. Bu tadqiqot yo'nalishi tillararo muloqot samaradorligini oshirishga va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hall, E. T. (1976). *Beyond Culture*. New York: Anchor Books.
2. Ide, S. (1989). Formal forms and discernment: Two neglected aspects of universals of linguistic politeness. *Multilingua*, 8(2-3), 223-248.
3. Ishii, S. (1984). Enryo-Sasshi Communication: A Key to Understanding Japanese Interpersonal Relations. *Cross Currents*, 11(1), 49-58.
4. Lebra, T. S. (1976). *Japanese Patterns of Behavior*. Honolulu: University of Hawaii Press.
5. Makino, S., & Tsutsui, M. (1995). *A Dictionary of Intermediate Japanese Grammar*. Tokyo: The Japan Times.
6. Nakane, C. (1970). *Japanese Society*. Berkeley: University of California Press.
7. Shibatani, M. (1990). *The Languages of Japan*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Yamashita, H., & Knight, K. (2001). Statistical Machine Translation of Japanese-English. *Proceedings of MT Summit VIII*, Santiago de Compostela, Spain.
9. The National Institute for Japanese Language and Linguistics (NINJAL). <https://www.ninjal.ac.jp>